



THE IMPORTANCE OF ETYMOLOGY IN LANGUAGE LEARNING FROM WORKS OF ESHQOBIL SHUKUR

Erkinova Nigora Esanovna

Oriental University,

Associate Professor, Department of Uzbek and Oriental Languages

nigoraerkinova68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195723>

ARTICLE INFO

Received: 16th November 2024

Accepted: 20th November 2024

Online: 21th November 2024

KEYWORDS

Word, purity of the word, folk, etymology, power of the word, native language.

ABSTRACT

One of the poets who pays special attention to the power of the word in artistic creation, its emotional-expressive character, and its ability to fulfill a poetic task is Eshqobil Shukur. In writing poetry, he uses the word not only as a means of expressing thought, but also seeks to find the possibilities of giving each word its aesthetic content, giving it a new spirit.

TIL O'RGANISHDA ESHQOBIL SHUKUR ETIMOLOGIK QARASHLARINING AHAMIYATI

Erkinova Nigora Esanovna

Oriental universiteti,

O'zbek va sharq tillari kafedrasi dotsent v.b.

nigoraerkinova68@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195723>

ARTICLE INFO

Received: 16th November 2024

Accepted: 20th November 2024

Online: 21th November 2024

KEYWORDS

So'z, so'zning sofligi, xalqonalik, etimologiya, so'zning quadrati, ona til.

ABSTRACT

Badiiy ijodda so'zning quadratiga, uning emotiv-ekspressivlik belgisiga, poetik vazifa bajara olish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadigan shoirlardan biri Eshqobil Shukurdir. U she'r yozishda so'zdan shunchaki fikr ifodalash vositasi sifatida foydalanmaydi, balki har bir so'zning estetik mazmunini bera olish imkoniyatlarini izlab topadi, ularga yangicha ruh beradi.

Badiiy adabiyotda so'zning o'rni o'zgacha, so'z bir vaqtning o'zida bir necha ma'noni anglatishi, kutilmagan voqeа-hodisaga ishora qilishi, so'z o'yini kontekstida nutqning ta'sir kuchini oshirib yuborishi mumkin. A. Rustamov ta'kidlaganidek, "So'z sermazmun bo'lib, u ko'p narsalarga dalolat qiladi. Bir so'zning o'zini turli holatlarda turlich ra ma'noda qo'llash mumkin. Binobarin, so'zni to'g'ri ishlatish uchun uning ma'nolarini iloji boricha mukammal bilishga urinish lozim"¹.

Badiiy ijodda so'zning quadratiga, uning emotiv-ekspressivlik belgisiga, poetik vazifa bajara olish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadigan shoirlardan biri Eshqobil Shukurdir.

¹ Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Extremum press, 2010. – Б. 19.



U she'r yozishda so'zdan shunchaki fikr ifodalash vositasi sifatida foydalanmaydi, balki har bir so'zning estetik mazmunini bera olish imkoniyatlarini izlab topadi, ularga yangicha ruh beradi.

Ma'lumki, badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi har bir adib ijodiy faoliyati davomida so'zshunoslik bilan ham shug'ullanadi. Chunki she'rning asosiy materiali – badiiy so'z, undan mahorat bilan foydalanish asarning ta'sirchanligini belgilab beradi. Shu jihatdan ham Eshqobil Shukur she'rlari tahlilida so'zning o'ziga xos o'rnini ochib berish ahamiyatlidir.

Eshqobil Shukurning badiiy so'zga munosabati ona tilimizga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi. U o'z tili oldida inson va shoир sifatida qarzdorligini his qiladi, bu tilni "Ona tili" degandan ko'ra katta harflar bilan yozib, "Ona Til" deyish o'rini ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, "Ona Til" deyish insonni burchliroq va mas'uliyatliroq bo'lishga yo'l ochadi. Chunki Ona Tilda kuylangan shoh asarlar bu tilni tirik bir obyektga aylantira oladi².

Shoirning so'zga bo'lgan munosabati etimologik kuzatishlarida ham ko'zga tashlanadi. Uning 2018-yilda nashr etilgan "Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv"³ deb nomlangan kitobida xalq tilida qo'llanuvchi ayrim so'z va iboralarning kelib chiqishi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Kitob haqidagi qisqacha qayd (annotatsiya)da berilgan.

Eshqobil Shukur mazkur kitobida etimologik qarashlarini dalillash uchun bir necha qadimgi turkiy tillar izohli lug'atlariga, etimologik lug'atlarga, darslik va o'quv qo'llanmalarga, tarixiy, badiiy asarlarga, xalq tili materiallariga murojaat qilgan. Masalan, M. Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, A. Navoiyning doston va she'rlari, Bobur, Mashrab g'azallari, A. Qodiriy, H. Olimjon, G.G'ulom asarlari hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan misollar keltirib, so'z, ayrim ibora va so'z birikmalarining kelib chiqishini sharhlashga harakat qilgan.

Shoir kitobida ellikdan ortiq o'rinda so'zlarning etimologiyasini izlashda A. Navoiy asarlari murojaat qilgan, uning she'rlarida qo'llangan so'zlar ma'nolarini bugungi kunda ishlataladigan so'zlar ma'nosi bilan solishtirgan. So'z ma'nolarini bu usulda izohlashda misollarning A. Navoiy she'rlaridan olinishi va ilmiy asoslanishi etimologik xarakterdagi mazkur asarning ilmiy qimmatini yanada oshirgan.

Mazkur kitob 336 betdan iborat bo'lib, "Jannatga maktub" deb ataluvchi kirish qism, 290 betli asosiy qism hamda "So'zlar guvohligida", "Yondaftardagi turli qaydlar", "Ona til haqidagi she'rlar", "Ona til tuyg'usi" deb ataluvchi yakuniy qismlardan iborat. Nashrning 269 ta fasldan tashkil topgan asosiy qismida so'zlar va o'rni bilan ularning variantlari tahlil qilingan. "So'zlar guvohligida" qismida so'z va maqollar bilan bog'liq ayrim urf-odatlar haqida fikr yuritilgan. "Yondaftardagi turli qaydlar" qismida ba'zi qadimgi turkiy so'z va iboralar tahlilga tortilgan. Shundan so'ng "Ona til haqidagi she'rlar" faslida ayni mavzudagi yettita she'r matni keltirilgan. "Ona til tuyg'usi (yoxud maqoldan eposgacha)" degan xulosa-esse bilan yakunlangan.

Ushbu kitobda berilgan ayrim so'zlarning etimologik tavsifini keltirib o'tamiz. Shoir qushlar ini ma'nosini ifodalagan "uya" (uya) so'zining "uy" so'ziga aloqasi bo'lishi ehtimolga yaqin. Chunki qadimda turkiy tillarda, xususan, xakaslar tilida "uya" (uya) so'zi oila, urug',

² Эшқобил Шукур. Шоир ўз тилида қўйлаши керак // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2012, 21-сон.

³ Эшқобил Шукур. Бобо сўз изидан (Сўзлар билан сўзлашув). – Тошкент, Mashhur-press нашриёти, 2018. – Б. 336.



avlod degan ma'nolarni anglatgan. Hozir tilimizda "uy" yashashga mo'ljallangan qurilma ma'nosidan tashqari oila, yurt, avlod ma'nolarini ham anglatadi. "*Avvalo uyingda tinching bo'lsin*", "*O'z uyingni o'zing asra!*" degan gaplar ham shu ma'noni ifodalab keladi."⁴.

Ko'rinaridiki, shoir so'zning etimologik xususiyatini ochib berishda dastlab uning qadimiylarini aniqlagan, fikrini asoslash uchun tarixiy manbalarga murojaat qilgan, faqat shundan so'ng muayyan xulosalarini bayon qilgan.

Shoirning ayni kitobdagi so'zlar tahliliga oid kuzatuvarlarda ikki jihat muhimligiga e'tibor qaratish lozim:

- 1) tahlilga tortilgan so'zlarning shoir ijodida uchrashi;
- 2) so'zlar izohida badiiy asarlardan misollar keltirilishi.

Xarakterli jihat shundaki, tahlilga tortilgan so'zlar ham "Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv" asarida, ham shoirning she'riy to'plamlarida uchraydi. Bu tabiiy hol. Sababi shoir she'r yozish jarayonida etimologik kuzatuvarlar ham olib borgan. So'z etimologiyasiga bo'lgan qiziqish ushbu kitobning yozilishiga turtki bergen. Birgina misol bilan cheklanamiz. Kitobda *yig'lamoq* so'zi tahlil etilgan. Eshqobil Shukurning "Hamal ayvoni" nomli she'riy to'plamida bu fe'l 79 marta qo'llangan⁵.

Qiziqarli jihat, ushbu kitobda ketma-ket berilgan she'rlarning ko'pchiligidagi *yig'lamoq* so'zi uchraydi. Eshqobil Shukur she'rlarida bu so'zga ko'p o'rinni berilganligi uning, lirik qahramonining qayg'uli ruhiy holatidan darak beradi. Bu holat shoirning ayni shu so'z etimologiyasi bo'yicha ham muayyan izlanishlar olib borishiga turtki bergen.

E'tirof etish joizki, Eshqobil Shukur "Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv" kitobini yozishda, ayniqsa, unda so'zlar etimologiyasini keltirishda masalaga shoirona yondashgan. Shoir so'zlar etimologiyasi bo'yicha izlanish olib borishda quyidagi til materiallariga suyangan:

- 1) xalq og'zaki ijodi materiallariga;
- 2) o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari she'rlaridagi so'zlar ma'nosiga.

Eshqobil Shukur, ayniqsa, Alisher Navoiy she'rlariga ko'p murojaat qilgan. Alisher Navoiy kabi saroy she'riyatida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorning so'zdan foydalanish uslubi o'ziga xos edi. Shu sababli ham Eshqobil Shukur Alisher Navoiy she'riyatiga suyanib etimologik kuzatuvarlari olib bordi va bir vaqtning o'zida so'zning shoir ijodida hamda o'sha davrda oddiy xalq nutqida anglatgan ma'nolarini kuzatdi.

Adabiyotshunoslikda o'zbek shoiri Eshqobil Shukurning adabiy ijodi, u yaratgan asarlar mazmuni haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda shoirning asarlari ayrim ishlarda lingvistik aspektida tadqiq etildi. Xususan, I. Ernazarovaning Eshqobil Shukur asarlarida so'z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlari yuzaga keldi⁶.

Eshqobil Shukur so'zlarning etimologik izohlarida Alisher Navoiy asarlaridan foydalanishi holatini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

⁴ Eshqobil Shukur. Ko'rsatilgan asar. – B. 24.

⁵ Эшқобил Ш. Ҳамал айвони. – Тошкент, Шарқ, 2002. – Б. 8-63.

⁶ Эрназарова И. Муаллиф сўз ijodkorliginining lisoniy-kognitiv taҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – Б. 48; Ernazarova I. Eshqobil Shukur – Navoiya munosib izdosh // Alisher Navoiy. 2022. №3. В. 134-139.



| Nº | Etimologik tavsif berilgan so'z | Kitobdagi tartibi | Alisher Navoiydan keltirilgan misol ⁷ |
|-----|--|-------------------|---|
| 1. | <i>Kimsanboy</i> ("Kimsan" aslida kim?) | 3 | <i>Ki, kimsondin oltunni farq aylagay,</i> <i>Qizil tobadin kunni farq, aylagay.</i> ("Saddi Iskandariy") |
| 2. | <i>Yig'lamoq</i> ("Yig'ladi" nega "yig'ladi?") | 10 | <i>Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,</i> <i>Yig'latti meni demayki, siqtatti meni.</i> ("Muhokamat ul-lug'atayn") |
| 3. | <i>Chigal, chigil</i> ("Chigal" ning chigili) | 30 | <i>Chigil birla Yag'modin aylab ubur, Nechukkim,</i> <i>chamandin sabovu dabur.</i> ("Saddi Iskandariy") |
| 4. | <i>Yoz</i> ("Yozyovon" dagi "yoz") | 35 | <i>So'kso'k kibikim chu bo'ldi puda,</i> <i>Yotqan yozi uzra to'da-to'da.</i> ("Layli va Majnun") |
| 5. | <i>Saqoq</i> ("Soqol va saqoq") | 75 | <i>Gahi ko'z surtarimda yo'qsa har yon shodlig' ashkim,</i> <i>Gul uzra qatra shabnamlar kebi siymin saqog'inda.</i> ("G'aroyib us-sig'ar") |
| 6. | <i>Birpas</i> ("Birpas"mi, "ikkipas?".) | 79 | <i>Bir pos chu tundin o'tti ul xayl,</i> <i>To'shluq-to'shi qildi uyqug'a mayl.</i> ("Layli va Majnun") |
| 7. | <i>Neft</i> ("Neft") | 88 | <i>Bo'lub ikki ko'zi nazzora chog'i,</i> <i>Nechukkim naftning o'tlug' bulog'i...</i> ("Farhod va Shirin") |
| 8. | <i>Hammol, homila</i> ("Hammol va homila") | 91 | <i>Bu dog'i tormag'uncha hazmi komil, Badanni qilma ortuq yukka homil.</i> ("Farhod va Shirin") |
| 9. | <i>Magazin</i> ("Magazindagi xazina") | 92 | <i>Yigitlig'da yig' ilmning maxzani,</i> <i>Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani...</i> ("Tarixi anbiyo va hukamo") |
| 10. | <i>Organ, arg'anun</i> ("Organizm va arg'anun") | 93 | <i>Savti noqisu navoyi arg'unun,</i> <i>Shayx dini motamig'a tortib un.</i> ("Lison ut-tayr") |
| 11. | O'dag'a | 108 | <i>Dovulg'a bo'lub to'ppi yanglig' bari, O'tog'a bosh uzra sariq qush pari.</i> ("Saddi Iskandariy") |
| 12. | <i>Balchiq</i> ("Balchiq") | 110 | <i>Gavhar balchiqqa tushgan bila qiymati ushalmas...</i> ("Mahbub ul-qulub") |
| 13. | <i>Mo'ldirash, muldur</i> ("Mo'ldirash" va "muldur") | 134 | <i>Suv yoqosig'akim yog'ib muldur,</i> <i>Bu yoqo tugmasi bo'lub ul dur.</i> ("Sab'ai sayyor") |

⁷ Eshqobil Shukurning "Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv" kitobida Alisher Navoiydan keltirilgan baytlarda "Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami" (20 томлик)дан бироз farq qilgan о'rinalar mavjud. Jadvalda bunday misollar "Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami" (20 томлик. Toshkent: Fan, 1987-2003) dagi matnlarga asosan keltirildi.



| | | | |
|-----|---|-----|---|
| 14. | <i>Mujmal</i> ("Mujmal" asli mujmalmi?) | 136 | <i>Dostonlarki ayttim mujmal,</i> <i>Manga yo'q hech anda bahs-u jadal.</i> ("Sab'ai sayyor") |
| 15. | <i>Shashvar</i> ("Shashvar ham yo'q, lekin shashpar bor") | 138 | <i>Etti gardung'a ofat shashparidin,</i> <i>Bo'lub suv hut bag'ri xanjaridin.</i> ("Farhod va Shirin") |
| 16. | <i>G'aroyib, g'arib</i> ("G'aroyib g'arib") | 139 | <i>Senki borsen zamon elida g'arib,</i> <i>Sanga bo'lg'on jahon ichinda ajib.</i> ("Sab'ai sayyor") |
| 17. | <i>Gulqand</i> ("Konfetmi, gulqand?..") | 141 | <i>Xalq uchun maxlut etib gul birla qand, Tab'g'a gulqand yanglig'sudmand.</i> ("Lison ut-tayr") |
| 18. | <i>Tasma</i> ("It bo'ynidagi tasma") | 156 | <i>Bir chog' neki lutf etib apoda,</i> <i>Solib edi bo'ynunga qiloda.</i> ("Layli va Majnun") |
| 19. | <i>Mushuk, shumshuk</i> ("Mushuk va shumshuk") | 164 | <i>G'ayri ulkim, yotibon yo'lungda shuk, Qormabon qoningni ichkoy bir mushuk.</i> ("Lison ut-tayr") |
| 20. | <i>Ovqat/ avqot</i> ("Ovqat va aqvot") | 166 | <i>Bazm ichra demayki barcha avqot,</i> <i>Maxluq anga lutfi mahzdin zot.</i> ("Layli va Majnun") |
| 21. | <i>Ajriq</i> ("Ajriq") | 186 | <i>Opada bo'lg'an o'lsa tufroq rust,</i> <i>Asrag'on bo'lsa ajrig' oni durust.</i> ("Sab'ai sayyor") |
| 22. | <i>Zaqqum</i> ("Do'zax daraxti") | 189 | <i>Chun xarita boshini ochti laim,</i> <i>Kim yig'il mish erdi zaqqumi jahim.</i> ("Lison ut- tayr") |
| 23. | <i>Yaramoq</i> ("Yoro, yaroqli va yaramoq") | 190 | <i>Bu o'tdin suv bo'lib xorosi oning,</i> <i>Vale yo'q, so'rg'oli yorosi oning.</i> ("Farhod va Shirin") |
| 24. | <i>Ashqol-dashqol</i> ("Ashqol-dashqol") | 197 | <i>Bazl-u karam shevasining holi bor,</i> <i>Lek nechukkim kerak ashkoli bor.</i> ("Hayrat ul- abror") |
| 25. | <i>Sandal</i> ("Sandal atrofidagilar") | 223 | <i>Birining to'ni sandalioyin,</i> <i>Sandali uy aro topib tamkin.</i> ("Sab'ai sayyor") |
| 26. | <i>Basir, basirat</i> ("Basir va basirat") | 236 | <i>Sirri haqiqatdin o'lub bahravar,</i> <i>Ayla basirat ko'zi birla nazar.</i> ("Hayrat ul -abror") |
| 27. | <i>Saksovul / qumg'og</i> ("Qumg'og' va saksovul") | 237 | <i>Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir,</i> <i>Sahroda qumg'og'-u tikan, bo'stonda sarv-u gul butar...</i> ("Badoe ul-vasat") |

Ko'rinaridiki, Eshqobil Shukur "Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv" kitobida ko'plab so'zlarning etimologik ma'nosini izohlashda Alisher Navoiy asarlariga tayangan. Boshqacha aytganda, u kundalik hayotda qo'llanuvchi so'zlarning ma'nosini poetik matnlardan qidirgan. Albatta, har qanday so'z matnda estetik bo'yoqqa ega bo'lar ekan, yangi ma'no qirralarini



namoyon qiladi. Shu jihatdan ham Eshqobil Shukur so'zlarning etimologik ma'nosini izohlashda ko'proq badiiy manbalarga suyangan deyish mumkin.

Shoirning ushbu kitobiga "Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv" deb nom qo'yishi beziz emas. U so'zlar ma'nosini izlashda til tarixiga murojaat qilish kerakligini, etimologik tadqiqotlarda buyuk ajdodlarimiz asarlari bizga ko'p jihatdan yordam berishi mumkinligini asoslab berdi. Zamonaviy tilshunoslik ham shu yo'ldan borib, so'zlarning etimologik xususiyatlarini ochib berishi lozim. Ammo Eshqobil Shukurning kuzatishlari, o'zi tan organidek, ilmiy-ommabop xarakterda ekanligi bilan ajralib turadi.

Shunga qaramay, bir o'zbek shoirining tilimizdagи so'zlarning etimologik xususiyatlariga oid bu izlanishi til tadqiqiga o'ziga xos yondashuv sifatida baholanishi lozim.

References:

1. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. – Ж:3. Тошкент: Фан, 1988. – 575 б.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. – Ж:3. – Тошкент: Фан, 1988. – 563 б.
3. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17-том. – Тошкент: Фан, – 534 б.
4. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Extremum press, 2010. – 54 б.
5. Эрназарова И. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – Б. 48.
6. Эшқобил Шукур. Бобосўз изидан (Сўзлар билан сўзлашув). – Тошкент, Машхурпресс нашриёти, 2018. – 336 б.
7. Ernazarova I. Eshqobil Shukur – Navoiyga munosib izdosh // Alisher Navoiy. 2022. №3. В. 134-139.